

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Ro'yhatga olindi:
84
2025 yil "25" oy



TA'LIMGA KIRISH

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohalari:	600000	- Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari
Ta'lim sohasi:	610000	- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
Ta'lim yo'nalishi:	60611300	- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi

Fan moduli /modul kodi IEDU16MBK		O'quv yili 2025-2026	Semestr 5	ESCT-Kreditlar 6
Fan moduli / turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek /rus		Haftadagi dars soatlari 5
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
2.	Ta'limga kirish	72	108	180

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – raqamli ta'lim muhitida ta'limni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslariga bag'ishlangan. Kursda ta'limni rivojlantirishdagi muammo va yechimlar, zamonaviy yondashuvlar, hamda xalqaro miqyosidagi tahlilli o'qitish va baholashda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar batafsil yoritilib beriladi. Bundan tashqari ta'lim sifati, o'qituvchining kasbiy rivojlanish strategiyalari, ta'limning ijtimoiylashuvi, AKT va onlayn resurslardan foydalanish masalalariga urg'u beriladi.

Fanning vazifasi – ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi o'quvchi shaxsi ustivorligini ta'minlash, ta'lim maqsadining natijaga erishuvini amalga oshirish, ta'lim mazmunini ta'minlovchi vosita, usul, shakllar texnologiyasini yanada takomillashtirish.

Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

I. Fan tarkibiga quyidagilar kiradi:

1-mavzu.

Ta'limning amaliy ahamiyati va ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari, talablari.

2-mavzu.

Ta'limda siyosiy yondashuvlar. Siyosiy o'zgarishlarning ta'lim tizimiga ta'siri. O'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishdagi roli

3-mavzu.

O'qitish o'qish, baholash, va refleksiya ketma-ketligining ta'limdagi ahamiyati. Maqsadli, samarali va sifatli o'qitish turlari, hamda ularning farqli jihatlarini.

4-mavzu.

Ta'lim sifati va talabalarga yo'naltirilgan o'qitishda tanqidiy fikirlash.

5-mavzu.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchining yondashuvlari va tahlili. O'qituvchining pedagogik yondashuvlari va turlari tahlili.

6- mavzu.

Ta'lim tizimidagi zamonaviy o'zgarishlar. Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy rivojlanishi va karyera strategiyalari.

7-mavzu.

Raqamli ta'limda o'qitish va o'qish jarayonlari, suniy intellekt tizimidan ta'lim tizimida foydalanish.

8-mavzu.

Ijtimoiy muhofaza va tenglik. Globalashtirilgan va o'zaro bog'liq muhitda ta'limning ijtimoiylashuvi va tengligi. Talabalarni raqamli jamiyat a'zosi sifatida tarbiyalash va tayyorlash.

II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ta'lim jarayonlaridagi manfaatdor tomonlarni tahlil qilish va ta'limdagi qarama-qarshiliklarni muhokama qilish
2. O'qituvchilik kasbidagi o'zgarishlarni o'rganish va ularning ta'lim siyosatiga ta'siri
3. O'qitish, o'rganish va baholash siklini tahlil qilish; o'qish jarayonlarini tahlil qilishda Bernshteyn nazariyasidan foydalanish.
4. Ta'limdagi mashhur atamalar va iboralarni tanqidiy tahlil qilish
5. Turli yo'nalishda pedagogik amaliyot va o'qitish metodlarini ishlab chiqish.
6. Ta'limda dolzarb bahs-munozaralarni muhokama qilish va shaxsiy professional o'sishni rejalashtirish.
7. Ta'lim jarayonida texnologiyalarning o'rni, IKT va onlayn resurslardan foydalanish.
8. Ta'limda ijtimoiy adolat va tenglik masalalarini o'rganish, shuningdek, talabalarni raqamli fuqarolikka tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlari faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Ma'ruzada o'tilgan mavzularni adabiyot va ma'ruza matnlaridan foydalanib mustahkamlash.

Amaliy mashg'ulotlar materiallarini mavzu bo'yicha adabiyotlar va uslubiy ko'rsatmalardan foydalanib o'zlashtirish

Har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda tanlangan vazifa bo'yicha esse, qiyosiy tahlil, kichik loyiha tayyorlash:

1. Turli mamlakatlar yoki jamoalardagi ta'lim jarayonlariga madaniy va ijtimoiy omillarning ta'sirini o'rganib, misollar bilan esse yozish.

2. Ma'lum bir mamlakat yoki mintaqaning ta'lim tizimining rivojlanishini o'rganib, asosiy tarixiy voqealar va ularning hozirgi ta'limga ta'sirini qiyosiy tahlil qilish.

3. Ta'limdagi xilma-xillik va tenglik prinsiplariga asoslangan ta'limiy dastur yoki kurs ishlab chiqish.

3.	<p>1. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talabalar: – Respublikamiz ta'lim tizimi tarixi, ilmiy-uslubiy asoslari, elektron ta'lim tushunchalarini hamda rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari ta'lim tizimi haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; – sharq va g'arb mamlakatlari buyuk mutafakkir olimlarining ta'lim tizimiga falsafiy qarashlari, ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogning innovatsion faoliyati mazmunini, axborotlashgan muhitda innovatsion texnologiyalarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; - uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanish konsepsiyalari, ta'lim tizimini xalqaro standartlari, Baloniya kelishuvi, Yevropa ta'lim tizimi va ta'lim tizimini yanada takomillashtirish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i></p>
4.	<p>2. Ta'lim texnologiyalari va metodlari</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma'ruzalar; • Amaliy topshiriqlar; • Individual loyihalar; • Guruhlarda ishlash; • Interaktiv taqdimotlar yaratish; • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>3. Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks yettish, o'rganilayotgan mavzular yuzasidan to'g'ri mushohada yuritish, loyihalarni bajarish va himoya qilish, amaliy va mualliflik dasturlarini tahlil qilish va ishlash ko'nikmasini hosil qilish, oraliq va yakuniy nazorat shakllarida berilgan vazifalarni bajarish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. AbuAssaly-George, L., Bunney, Dr. K., De Valdenebro, C., & Mead, T. (2021). Foundations of Education. 2. Beasley, M., & Haulmark, L. (2021). Introduction to Education (BETA). <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Дирвук Ye.П. Введение в инженерно-педагогическое образование, Учебное пособие г. 2019 2. С.П.Миронова, Olxovskaya Ye.B., Sapagina T.A., Инновационные технологии в профессиональной подготовке бакалавров г.2019 3. D.A.Zaripova, N.N.Zaxirova “Ta’limga kirish” o’quv qo’llanmasi. Toshkent, 2022 yil. 4. Зарипова Д.А., Ганиева Н.А., Муртазаева У.И., Введение образование. учебное пособие для выполнения практических работ. 5. D.A.Zaripova. Ta'lim texnologiyalari o'quv qo'llanma 2019 yil. 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish» konsepsiyasi 7. N.Isakulova. Kasbiy pedagogika. Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2015. 8. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012. 9. История педагогики и образования: учебник для академического

	<p>бакалавриата, Пискунов, А.И. Юрайт, 2019</p> <p>Axborot manbalari</p> <p>10. https://www.educationindex.ru/articles/university-rankings/</p> <p>11. https://gtmarket.ru/ratings/the-world-university-rankings</p> <p>12. http://elibrary.ru/</p> <p>13. http://edu.ru</p> <p>14. http://rospsty.ru</p> <p>15. http://rsl.ru</p> <p>16. http://anovikov.ru/books.htm/</p> <p>17. www.nist.gov</p> <p>18. https://en.wikipedia.org</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti kengashining 2025-yil 29.04 29/04/25 -son yig'ilishida tasdiqlangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Axborot ta'lim texnologiyalari" kafedrasining 2025 yil 18.04 dagi 18 -sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sullar:</p> <p>D.A.Zaripova – TATU, "Axborot ta'lim texnologiyalari" kafedra mudiri (PhD), dotsent</p> <p>M.SH.Salixova – TATU, "Axborot ta'lim texnologiyalari" kafedra katta o'qituvchisi</p> <p>N.Yu.Rasulova – TATU, "Axborot ta'lim texnologiyalari" kafedra katta o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>SH.Abduraxmonov – TDPU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasida dotsenti, p.f.f.d. (PhD)</p> <p>B.I.Ganiyeva – TATU, "Axborot kutubxona tizimlari" kafedrasida professori, p.f.n.</p>

Handwritten signature

